

YOSHLAR NUTQIDA TURLI YOT SO'ZLARDAN HOLI SOF O'ZBEKCHA SO'ZLARDAN FOYDALANISH MASALASI.

Ataqulova Nilufar Olim qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq sofligiga putur yetkazuvchi so'zlar haqida ma'lumotlar berilgan, ularning so'zlashuvda qo'llanilishi va badiiy adabiyotdagi o'rni misollar asosida ko'rsatilgan. Badiiy nutq va adabiy nutq farqlariga to'xtab o'tilgan. Nutq sofligini saqlash lozimligi, tildan to'g'ri foydalanish, so'zlashuvda o'zimizga yot bo'lgan va til axloqiga zid tushunchalarni qo'llashdan qochish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: vulgarizmlar, varvarizmlar, lingvokulturologiya, badiiy asarlarda vulgarizm, badiiy asarlarda varvarizm, adabiy nutq, badiiy nutq.

Abstract: In this article, general information about words that harm the purity of speech, their use in speech and their place in fiction is shown based on examples from several masterpieces of Uzbek literature. The differences between artistic speech and literary speech are discussed. The need to maintain the purity of speech, the correct use of language, and avoiding the use of concepts that are alien to us and contrary to language ethics are discussed.

Keywords: vulgarisms, lingua culturology, barbarisms, vulgarism in work of art, barbarism in works of art, literary speech, artistic speech.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o'rtasida madaniy va til o'zaro ta'siri tobora kuchaymoqda. Bu holat, tabiiyki, o'zbek tiliga, xususan, yoshlar nutqiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida rus, ingliz, hatto koreys yoki turk tillaridan olingan yot so'zlar, jargon va atamalarni ishlatish odatiy holga aylanib bormoqda. Bu esa sof o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Bu esa yoshlarning sof o'zbek tilidan uzoqlashib borishiga olib kelmiqda. Yoshlarning og'zaki va yozma nutqida quyidagi holatlarga ko'p duch kelamiz:

- Inglizcha atamalarning to'g'ridan-to'g'ri ishlatilishi (masalan, "deadline", "meeting", "target");
- Rus tilidan o'tgan so'zlarning eskicha shaklda qo'llanishi (masalan, "obshajka", "nachalnik");
- Mobil telefon, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelgan yot so'zlarning keng tarqalishi.

Ushbu holatlar tilimizni sun'iy tarzda buzibgina qolmay, balki milliy tafakkur va madaniyatimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nutqda yot so'zlarning ko'pligi

tilning jozibasini pasaytiradi, milliylikdan uzoqlashtiradi va avlodlar o‘rtasidagi til ko‘prigini zaiflashtiradi.

Shu o‘rinda yoshlarning nima sababdan yot so‘zlarga murojaat qilish sabablarini inobatga olish ham zarur:

1. **Zamonaviylikka intilish:** Ko‘pchilik yoshlar xorijiy so‘zlarni ishlatishni zamonaviylik, “moda” belgisi deb hisoblashadi.
2. **Tilga loqaydlik:** O‘zbek tilidagi muqobil so‘z yoki iborani bilmaslik, izlab topishga intilmaslik.
3. **Axborot makonining ta’siri:** Ko‘plab axborotlar (kino, ijtimoiy tarmoqlar, dasturlar) chet tillarida bo‘lgani sababli yot so‘zlar tezda lug‘atga kirib kelmoqda.
4. **Ta’lim tizimidagi kamchiliklar:** Ba’zida maktab va oliy ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot fanlariga yetarlicha e’tibor berilmasligi.

Bu o‘rinda yoshlar nutqida uchraydigan ba’zi varvarlar va ularning o‘zbek tilidagi variantlariga to‘xtalsak:

так что – shuning uchun, xullas kabi ma’nolarda

удар – daxshat

между прочим – e’tiboringiz uchun

давай – bo‘l, tezlash kabi ma’nolarda

слишком – juda

как раз – aynan

свежий – yangi

сочный – suvli

остановка –bekat

аптека – dorixona

больница – kasalxona

расписание – dars jadvali

мост – ko‘prik

вечный – har doim

OK – xo‘p

Copy – nusxa

Ooo my god – ey xudoym

Sorry – kechiring

Yoshlar nutqida turli yot so‘zlardan holi sof o‘zbekcha so‘zlardan foydalanishlari uchun ber necha echimlarni taklif qilmoqchimiz jumladan:

Sof o‘zbekcha so‘zlar targ‘ibotini kuchaytirish: Media, ta’lim, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy so‘zlar, iboralar faol targ‘ib qilinishi lozim.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarini ommalashtirish: Yoshlarni lug‘atlar bilan ishslashga o‘rgatish, ular uchun qulay mobil ilovalar ishlab chiqish.

Yozuvchilar, blogerlar va san'atkorlarning roli: Mashhur shaxslar o‘z chiqishlarida, videolarida, postlarida ona tilini e’zozlagan holda sof tilni namoyish etishlari muhim.

Til madaniyati bo‘yicha tanlovlari: Yozma va og‘zaki nutq madaniyati bo‘yicha tanlovlari, fleshmoblar orqali yoshlarning e’tiborini tilga jalg qilish.

O‘zbek tili – bu bizning milliy qadriyatimiz, tariximiz va mustaqilligimiz timsolidir. Tilni asrash – bu faqat grammatik qoidalarni o‘rganish emas, balki har birimizning milliy ongimizga bo‘lgan hurmatimiz ifodasidir. Yoshlarimiz ona tilida bemalol va ravon so‘zlay olishlari, yot so‘zlarga muqobil so‘zlarni topib ishlata olishlari kerak. Bu borada har bir oila, mакtab, jamiyat va ommaviy axborot vositalari birgalikda harakat qilsa, sof o‘zbekcha nutqni targ‘ib qilish mumkin.

Qolaversa, nutq sofligini buzuvchi vositalar haqida gap ketsa, aholi orasida lingvokulturologiyani kengroq yoyish, nutqiy madaniyatni to‘g‘irlash, qo‘llanilish doirasi chegaralangan so‘zlarning badiiy asarlar tilida qo‘llanilishini alohida baholash kerak, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili aynan bir hodisa emas. Badiiy nutq ham adabiy nutqning bir ko‘rinishi va adabiy til me’yorlariga bo‘ysundiriladi, ammo badiiy asar tilida adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi. So‘zlashuvda ona tilimizni buzmasdan ishlatish, vulgar va varvarlardan foydalanmaslik – tilda axloqning madaniy jihatdan to‘g‘ri va ravon bo‘lishiga, nutqning jozibadorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurayimova D.S. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning o‘rganilishi va uning ahamiyati // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya . Vol. 1 №. 01. 2021. _B.339.
2. Jamolxonov H . Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005. _271 b.
3. Lapasov J.Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent, 1995. _B.35.
4. Safarov SH, Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari. Samarqand.,2007. 8. Qurbanov D. Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida. 9. Qo‘ldoshev N. Nutqiy mukammallik va nutqiy jinoyat.
5. <https://zenodo.org>
6. ZiyoNet.uz